

## O'QITISH JARAYONIDA INTERFAOL METODLARIDAN FOYDALANISH

*Suvankulov Baxtiyor Mamarasulovich*  
*Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti*

**Abstract:** In this article author gives thoughts about the importance of educational methods in the educational process.

**Keywords:** pedagogical ability, conversation, story, persuade, method, encourage

Maqsad, mazmun, shakl, metod va vositalar kabi tushunchalar tarbiya jarayonining mohiyatini ochib beradi. Biroq tarbiya mohiyatini yoritishda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan yana bir tushuncha ham mavjud, bu tarbiya metodlari tushunchasidir. Tarbiya metodi (yunoncha "metodos"-yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li.

Tarbiya ahamiyatiga tatbiq etilganda, metodlar bu tarbiyalanuvchilarning ongi, tuyg'ulari, irodasi va xulqiga ta'sir etish usullaridir.

O'qitish jarayonida tarbiya metodlarining ahamiyati juda kata. Chunki, mana shu metodlardan foydalangan holda ta'lim va tarbiya jarayonini birgalikda olib boorish mumkin. Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Agar tarbiya metodlari bo'lmaganida ta'lim jarayonini to'g'ri amalga oshirish, o'qituvchi pedagogic qobiliyatini shakllantirish, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchi o'rtasida to'g'ri munosabatlarni yo'lga qo'yishning imkoniyati bo'lmasdi.

Har bir tarbiyalovchi ta'lim jarayonida yangi metod yaratishga harakat qiladi. Ammo, tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi yetmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat.

Unutmaslik kerakki, aynan bitta mazmun turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikrlar bilan bog'lash g'oyat muhimdir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlardir. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan

o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq, har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida metodlarni maqsadga muvofiq qo'llay olish zarur.

Hozirgi vaqtda o'zida tarbiya metodlaridagi yagona maqsad, mazmun va tartiblilkn aks ettiruvchi ko'proq obektiv va qulay metodlar qo'llaniladi. Ana shunday tavsif bilan bog'liqlikda tarbiya metodlari uch guruhga bo'linadi:

1. Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlar
2. Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlari
3. Xulq-atvorni va faoliyatni rag'batlantirish metodlari.

Shaxs ongini shakllantirish (ishontirish) metodlariga quyidagilar kiradi: hikoya, tushuntirish, izohlash, maruza, etik suhbat, nasihat, o'git, ko'rsatma, munozara, namuna. Bu guruhga mansub metodlarning vazifasi asosan, o'quvchilar ongida milliy g'oyani shakllantirish, davlatning ichki va xalqaro siyosatining mazmunini tushuntirishdan iboratdir.

O'quvchilar odatda hayot va turli adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ya'ni ularga turli adabiyotlardagi hikoyalar yoki real voqealarni aytib berish orqali ular ongiga ta'sir etish va natijada odob-axloq, tarbiya kabi yuksak fazilatlarni shakllantirish mumkin.

Hozirgi texnologiyalar asrida atrofimizda yuz berayotgan har qanday voqea-hodisa va yangiliklarni ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari ya'ni, radio, televizor, gazeta, jurnallar orqali tezda bilib olish mumkin. Ammo, o'quvchilar jamiyatimizda yuz berayotgan turli voqea-hodisalarni ommaviy axborot vositalari yordamida emas, balki ijtimoiy tarmoqlar orqali kuzatmoqdalar.

Masalaning bu jihatini olib qaraganda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan har qanday voqeani kuzatish, yangiliklarni eshitish ular ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va buning natijasida esa o'qishga qiziqishning susayishi, tarbiyasining buzilishi kabi holatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilar ta'lim jarayonida shaxs ongini shakllantiruvchi suhbat, hikoya kabi metodlardan foydalanib o'quvchilarga yuqorida aytilgan vaziyatlarning salbiy taraflarini ularga o'rnak bo'ladigandek voqealar asosida yoritib berishlari, natijada ularda ijobiy tassurotlar uyg'otish, ta'lim olishga qiziqishni orttirish va albatta insoniy yuksak fazilatlarni shakllantirishga erishishlari lozimdir.

Faoliyatni rag'batlash va motivatsiyalash metodlari qatoriga: rag'batlantirish, tanbeh berish, uyaltirish kabi metodlarni kiritish mumkin. Bulardan eng ahamiyatlisi rag'batlantirish metodi hisoblanadi.

Rag'batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'nglini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usulidir. Bu metodni 5-8 sinflarda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki, ushbu sinflarga o'smirlik davri to'g'ri keladi. O'smirlik ya'ni inqiroz davrida o'quvchilarda qarama-qarshi vaziyatlar masalan: ota-onalari, o'qituvchilari bilan ziddiyatlarning

yuzaga kelishi, do'stlari bilan kelisha olmaslik, o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishi kabilar yuzaga kelishi mumkin.

Shu sababli o'qituvchilar mana shu davrdagi o'quvchilarga rag'batlantirish metodidan foydalanib, sinfda ularning har biriga amal (sinf sardori, sport yetakchisi, orasta qizlar sardori va boshqa) tayinlamog'I kerak.

Shundagina o'quvchi o'zining kamolga yetayotganligini his qiladi, unda o'z kuchiga ishonch, mas'uliyat hissi paydo bo'ladi. Uni hurmat qilishadi, unga ishonishadi, uning fikrlari bilan qiziqishadi, unga quloq solishadi, demak, u jamoada o'z o'rniga ega bo'ladi.

O'qituvchilar rag'batlantirish metodidan foydalanganda o'quvchining yanada ijobiy sifatlarga ega bo'lishga intilishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, metodni tanlayotganda tarbiyachida muvaffaqiyatga erishishga nisbatan ishonch bo'lishi kerak. Buning uchun qo'llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko'ra bilish lozimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. B. X. Xodjaev “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” T. :-2017
2. <https://hozir.org> internet sayti
3. <https://ziyonet.uz> internet sayti